

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13356983>

TALABALAR MA'NAVIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TO'GARAKLARNING TARBIYAVIY IMKONIYATLARI

Raximov Asomiddin Anarbayevich,

Usanov Sherzod Abdulaxatovich,

Jumanov Sherzod Saloyevich

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

Pedagogika kafedrasi oqituvchilari

Annotasiya: Maqolada talabalarning milliy o'zlikni anglashi, milliy istiqlol g'oyasini qalbi va ongiga singdirish, muqaddas dinimiz va tariximizga sadoqatli bo'lishda togaraklarning tarbiyaviy imkoniyatlari ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan.

Kalit so'zlar: Talaba, milliy o'zlikni anglash, qalbi va qalbida sokinlik, sadoqat, hamkorlik, tarbiyaviy imkoniyatlar.

Аннотация. В статье научно и теоретически обоснованы образовательные возможности кружков в понимании национальной самобытности учащихся, привитии в их сердцах и умах идеи национальной независимости, верности нашей святой религии и истории.

Ключевые слова: Студент, осознание национальной идентичности, спокойствие в душе и сердце, лояльность, сотрудничество, возможности получения образования.

Annotation The article scientifically and theoretically substantiates the educational opportunities of clubs in understanding the national identity of students, instilling in their hearts and minds the idea of national independence, fidelity to our holy religion and history.

Key words A student, understanding of national identity, instilling in the heart and mind, loyalty, togaraks, educational opportunities.

Bugungi kunda dunyoda globallashuv jarayonlari kuchayib, tinchlik va barqarorlikka qarshi yangi tahdid va xatarlar tobora ko'payib bormoqda. Bunday murakkab va tahlikali vaziyat sohada amalga oshirilgan ishlarni tanqidiy baholab, uning faoliyatini zamon talablari asosida takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Mamlakatimizda jamiyat hayotining ma’naviy-ma’rifiy asoslarini mustahkamlash, milliy istiqlol g‘oyasining asosiy tushuncha va tamoyillarini hayotga joriy etish, yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yosh avlod qalbida Vatanimiz taqdiri va kelajagi uchun daxldorlik va mas’uliyat hissini oshirish, yot g‘oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirishga yo‘naltirilgan targ‘ibot tizimi shakllandi.

Xususan, oliy ta’lim muassasalarida yoshlar tarbiyasi, yoshlar bilan maqsadli g‘oyaviy-tarbiyaviy ishlarning yuzaki tarzda olib borilayotgani, jinoyatchilik, diniy ekstremizm va terroristik harakatlarga adashib qo‘shilib qolish, milliy qadriyatlarga e’tiborsizlik, erta turmush qurish, oilaviy ajralishlar kabi salbiy holatlarning oldini olishga qaratilgan targ‘ibot ishlarining aksariyat hollarda kutilgan natijani bermayotgani bu masalalarga jiddiy e’tiborni talab etmoqda.

Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida talaba-yoshlarni ma’naviy-ma’rifiy faoliyatini yo‘lga qo‘yishda xalqning madaniy-tarixiy an’analari, urf-odat hamda umumbashariy qadriyatlariga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va usullarni ishlab chiqish, amaliyotga joriy etish, shaxsni tarbiyalash, uni har tomonlama kamol toptirishning ustuvor vazifalariga aylandi. Yoshlarning ma’naviy olamini izdan chiqarishga qaratilgan turli tahdidlar, buzg‘unchi g‘oyalar, diniy ekstremizm va fundamentalizm, terrorizm, missionerlik harakati va ommaviy madaniyat kabi mafkuraviy xurujlarga qarshi kurasha oluvchi, vatanparvarlik va yon-atrofdagi voqealarga daxldorlik tuyg‘usi bilan yashovchi, mustaqil fikrga ega yoshlarni tarbiyalash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa ta’lim-tarbiya jarayonini yanada samarali tashkil etishning noan’anaviy usul va vositalarini joriy etishni talab etmoqda.

Ma’naviy-ma’rifiy faoliyat yakka tartibda, to‘garak ishi va ommaviy tadbirlar shakllarida tashkil etiladi.

Hozirgi kunda o‘quv yurtlarida eng ko‘p tarqalgan ma’naviy-ma’rifiy faoliyat shakli bu to‘garak ishidir. To‘garaklar oliy ta’lim muassasalarida quyidagi turlarda olib boriladi:

- a) fan to‘garaklari;
- b) mohir qo‘llar to‘garaklari;
- v) mutaxassislikka oid to‘garaklar;
- g) sport;
- d) badiiy havaskorlik to‘garaklari;
- ye) turli musobaqalar: viktorinalar, quvnoqlar va zukkolar va h.k.

Ushbu to‘garaklarning maqsadi- talabalarning predmet (fan) bo‘yicha olgan bilim va ko‘nikmalarini kengaytirish hamda chuqurlashtirish, o‘quv xonalarini to‘ldirish uchun jihozlar va ko‘rsatmali qurollar tayyorlash hamda shu asosda talabalarning texnikaviy ijodini rivojlantirishdan iborat. To‘garak a’zolari fan va texnika yutuqlariga bag‘ishlangan ma’ruza va referatlar tayyorlash bilan

shug‘ullanadilar, qiziqarli tajribalar o‘tkazadilar, masalalar yechadilar, fan bo‘yicha o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarda foydalanish uchun ko‘rsatmali qurollar va modellar ishlab chiqadilar hamda tayyorlaydilar. To‘garak a’zolari fan bo‘yicha mashg‘ulotlarga tayyorlanish va uni o‘tkazish vaqtida laborantlik vazifasini bajarishlariham mumkin. To‘garak ishining mazmuni ma’lum darajada mahalliy sharoitlar bilan belgilanadi. Mashg‘ulotlar mavzusi to‘garak rahbari tomonidan talabalarning qiziqish va istaklarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladi.

To‘garakning tashkil etilishi fanga alohida qiziqishini namoyon qilgan talabalar faolini tanlashdan boshlanadi. Bu faol keyinchalik talabalar hisobiga to‘ldirib boriladi, bular dastlab to‘garak ishi bilan tanishish, qiziqishlari va ishga munosabatlarini aniqlashga nomzodlar sifatida qabul qilinadi. To‘garak rahbariga yordam tariqasida starosta, asbob va materiallarning saqlanishi va berilishi uchun mas’ul talabalar, sektsiyalar bo‘yicha (to‘garak a’zolari bajaradigan ish turlari bo‘yicha) gurux sardorlari ajratiladi.

To‘garakdagi mashg‘ulotlar odatda haftada bir marta 2 soatdan o‘tkaziladi. Vaqtning ko‘p qismi amaliy ishlarga, oz qismi esa to‘garak a’zolarining ma’ruza, hisobot va so‘zga chiqishlariga ajratiladi. Mashg‘ulotlardan tashqari, istalgan bo‘shvaqtida to‘garak a’zolarining individual va jamoa holda ish olib borishlari ham qo‘llaniladi.

To‘garak a’zolari asbob va ko‘rsatmali qurollar tayyorlash bo‘yicha qilinadigan ishlarni boshlashdan oldin ko‘rsatilishi lozim bo‘lgan hodisa va jarayonlarni yaxshi va har tomonlama o‘rganishlari lozim. Bu o‘rganish natijalari to‘garak mashg‘ulotlarida muhokama qilinadi. So‘ngra asbobning chizmasi tayyorlanadi. To‘garakka yangi kelgan bolalar asbobni namuna bo‘yicha, adabiyotda bayon qilinganiga qarab yoki to‘garak rahbari tomonidan batafsil ishlab chiqilgan topshiriq bo‘yicha tayyorlaydilar. Keyinchalik ular namunaga o‘zgarishlar kiritish va uni takomillashtirishni o‘rganadilar. So‘ngra original asboblar konstruktsiyasini tayyorlashga o‘tadilar.

To‘garak a’zolari bajargan ishlarning sifati haqida faqat to‘garak rahbari emas, balki to‘garakning barcha a’zolari fikr yuritadilar. Bu - har bir to‘garak a’zosida jamoa oldida javobgarlik hissining hamda ko‘proq bilish, ko‘p narsaning uddasidan chiqish va bajarish istagini tarbiyalanishiga yordam beradi. Shuning uchun, talaba asbobni yasagach, uni to‘garak majlisida namoyish qiladi, u qanday maqsadga mo‘ljallangan bo‘lsa, shunga tegishli barcha tajribalarni o‘tkazadi, nazariy qoidalar asosida asbobning konstruktsiyasini asoslab beradi. O‘quv yilining oxirida to‘garak a’zolari bo‘lgan talabalar ishining hisobot ko‘rgazma-yarmarkasi o‘tkaziladi. To‘garak a’zolari barcha ommaviy tadbirlarning (texnikaviy olimpiadalar, konkurslar va hokazolarning) faol ishtirokchilari va ularni o‘tkazish tashkilotchilari hisoblanadi.

Oliy ta'lim muassasalaridagi fan to‘garaklari, badiiy havaskorlik, foto, radio, kinoxavaskor to‘garaklari, “Yosh adabiyotshunos”, “Yosh kitobxon”, “Yosh pedagog” kabi to‘garak va klublar xam katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

To‘garaklar va klublarda ishtirok etish talaba-yoshlarga bilish qobiliyatlar, ijodiy tafakkurini rivojlantirish bilan birga ularda yurt, Vatan, xalq oldidagi mas’uliyatini kuchaytirishga xizmat qiladi va shuning uchun ham yosh avlodning ma’naviy-ma’rifiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Yuqorida aytilgan fikrlar, ishlarni amalga oshirsak, ma’naviy-ma’rifiy faoliyat o‘z muddaosiga yetgan, barkamol avlodni shakllantirishga tamal toshi ko‘yilgan bo‘ladi. Buning uchun esa doimo izlanish, xarakat kilish lozim. Ma’naviy - ma’rifiy faoliyatda bu boradagi bor imkoniyatlardan maksimal foydalanishlari zarur.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim muassasalarida tashkil qilib o‘tkaziladigan ma’naviy-ma’rifiy faoliyat talaba-yoshlarni bilimga chanqoqliklarini oshirib, aqliy saloxiyat va zakovatlarini rivojlantirish bilan birga, ularni ma’naviy barkamol bo‘lib tarbiyalanishlar uchun zamin yaratadi.